

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA DIDAKTIK O'YINLARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI.

I.Ro'zmatov.

*Qo'qon davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat metodikasi kafedrasи katta o'qituvchisi
Talaba Nuraliyeva Ruxshona*

Annotation. Ushbu maqolada umumta'lismaktab o'quvchilarini jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda, ularni jismoniy jixatdan tarbiyalashga qaratilgan. Ishning asosiy maqsadi maktab o'quvchilarini umumiylismoniy tayyorgarlik sifatarini rivojlantirish va xayotiy xarakat imkoniyatlarini rivojlantirishdan iborat.

Kalit so'zlar: Jismoniy mashg'ulot, o'yinga tayyorgarlik, o'yin jarayoni, o'yinlarning jismomiy yuklamalari, oyinlarga moslashish, jismoniy xarakat jarayonida o'quvchilar organizmning jismoniy o'sib borishi.

Tadqiqotning dolzarbliji. Davlatimiz tomonidan "Ta'lism to'g'risidagi qonuni" 2020-yil yangi taxriri² va "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" gi qonun³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 5-martdagi qarori⁴. 2015-yil 4-sentabr jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi qonun, va ularning hayotga keng tadbiq etilayotgani hamda bu borada olib borilayotgan keng islohotlar fikrimizning dalilidir.

Tadqiqotni maqsadi. Umumta'lismaktablarida didaktik o'yinlarda foydalanib, o'quvchilarni jismoniy jixatdan tayyorlash va tarbiyaviy sifatlarini rivojlantirishdan iborat.

Tadqiqotni vazifasi. Umumta'lismaktablarida didaktik o'yinlarda o'quvchilarni tarbiyalashda didaktik o'yinlarni yoshga xos bo'lgan tarzda tashkil etish va otkazishdan iborat.

Jismoniy tarbiya darslarida jismoniy mashqlardan metodlardan to'g'ri foydalanish, o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligiga ijobiy ta'sir etadi, harakatga bo'lgan ehtiyojini ma'lum darajada qoplaydi.

O'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini yuqori bo'lishi jismoniy tarbiya dasturi materiallarining o'zlashtirilishiga va sog'ligini mustahkamlashiga yordam beradi.

Pedagogik texnologiyalarning bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri-bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining

birgalikdagi faoliyati bo'lib, asosan o'quvchilarni fikrlarga undaydi. Kerakli xulosalarga kelishni, ular o'zini tahlil qilishni va amaliyotda qo'llashni o'rgatadi. O'qituvchining asosiy vazifasi bu erda o'quvchilarga yo'l ko'rsatish, yo'nalish berish, eng to'g'ri xulosani aytishdan iborat.

O'yinlarni tarbiyadagi ahamiyati, o'yinlarni turlarining keng ravishda yoritish, o'yin o'tkazish uchun tayyorlash, o'yin turlari, o'yinni yakunlovchi aniq tushuntiriladi.

O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixologlar ta'kidlaydilarki, o'qishga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog'liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o'yin o'ziga xos bo'ladi. Tadqiqotchilar o'yin xususiyatlarini ishlab chiqqanlar, o'yinlarning muhim qirralari S.A.Shamakov tomonidan yoritilgan. U erkin rivojlanuvchi faoliyatni farqlaydi. O'yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakterga – «ijod maydoni»ga ega bo'ladi.

O'yin uchun hissiy ko'tarinkilik xosdir. U o'zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo'ladi. O'yindan tushunchalar, mavzu va hatto o'quv predmeti bo'limini o'zlashtirishda o'qitish uslubi va mustaqil texnologiya sifatida foydalilanadi.

Pedagogik jarayonni tashkil etishning bir qator uslublari hamda turli shakldagi pedagogik o'yinlar “o'yinli pedagogik texnologiyalar” ni tashkil etadi.

Pedagogik o'yinda ta'limning pedagogik maqsadlari aniq qilib qo'yiladi.

Pedagogik o'yinlar asosida talabalarni o'quv faoliyatiga yo'llovchi o'yinlar usullar va vaziyatlarni vujudga keltirish yotadi. Tashkil qilinga didaktik o'yinlar o'qituvchi tomonidan nazorat qilib boriladi.

Tashkil etilgan o'yinlar ta'lim oluvchilarda mexnatsevarlik, vatanga bo'lgan buxabbat, o'zaro xurmat tuygularini rivojlantiradi .

O'yin yakunida o'qituvchi o'yinni tahlil qilib beradi va yakun yasaydi. Ayniqsa, o'qituvchi o'yinning borishi, uning muvaffaqiyati va kamchiliklariga urg'u berishi lozim. SHuningdek, istiqbolda e'tibor berilishi kerak bo'lgan muvaffaqiyatlari, munozarali, ijodiy vaziyatlarni farqlab berishi kerak.

O'yinli texnologiyalarni amalga oshirish bo'lg'usi mutaxassisning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uslublaridan foydalanishni taqozo qiladi.

Ijodiy faoliyat tajribasini rivojlantirish uslublariga ilmiy tafakkurni jlonlantirish, yangi muammolarni echish malakasini ishlab chiqishga, muammolarni echishda ongli izlanishga olib keladigan uslublar ta'luqlidir. Ijodiy faoliyatni rivojlantirish uslublari G.S.Altshuller, O.G.Boganova, A.V.Brushlinskiy, G.Melxori, B.Mironov, P.Yakobson va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan.

Quyida keltirib o'tiladigan o'yinlar ta'lim oluvchilarga xarakat faoliyatini rivojlantiribgina qolmay balki, barcha jismoniy sifatlarini rivojlantiradi. Shu bilan birgalikda ijodkorlikni ham rivojlantirishga yordam beradi

Bular:

TORTISHUV.

O'yin haqida tushuncha:

O'yinchilar ikki jamoaga bo'linib, bir chiziq chetida saf tortadilar. O'yinchilar bir-birlarida qarshi turadilar. Xushtak chalinishi bilan har bir jamoa o'yinchisi raqib jamoa vakilini o'z tarafiga kuch bilan tortib, chiziqni bosib o'tishga majbur qiladi. Chiziqdan o'tib ketishga majbur qilgan har bir o'yinchi qo'lini ko'taradi, buni rahbar ochko hisobida sanab turadi.

qidasi:

Bunday tortishuv paytida o'yinchilardan birining ikki oyog'i chiziqdan o'tib ketsa, hisobga kiradi. Bahs paytida raqibning kiyimidan tortish mumkin emas.

Boshqacha usullar:

- Jamoa yoki juft bo'lib o'ynash;
- O'yinni bir qo'l (o'ng yoki chap) bilan o'tkazishga ham ruhsat bor.

SAKROVCHI CHUMCHUQCHALAR

O'yin haqida tushuncha: 3 metrli doira ichida o'yin boshlovchi turadi. +olgan o'yinchilar doira chetida bo'ladilar. O'yinchilar, ya'ni chumchuqcha bolakaylar doira ichi va tashqarisida sakray boshlaydilar. O'rtadagi boshlovchi ularni ishlashga, sakrashga ulgurmaganlarni tutishga harakat qiladi.

qidasi: Sakrayotganda doira ichidan chiqolmay qolgani ushlangan hisoblanadi. O'rtadagi o'yinchi ana shunday ikki-uch "chumchuqcha"larni tutgandan keyin o'rni almashtiriladi.

Tashkil qilingan diddaktik o'yinlardan foydalanishning asosiy maqsadi o'quvchilar o'rtasida uyushqoqlikni kuchaytirish, bir birlariga bo'lgan munosabatlarni yaxshilash va o'yinlar orqali xarakat imkoniyat darajasini rivojlantirishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI:

- 1.Mazkur Qonun O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637сонли “Ta'lim to‘g‘risida”gi
- 2.O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 04.09.2015 yildagi O'RQ-394-son

3. Siklik mashqlarni sport takomillashuv bosqichidagi sportchilar mashg'ulotning asosiy qismiga funksional moslashuvidagi ahamiyati. Qo'qon davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat metodikasi kafedrasи katta o'qituvchisi I.Ro'zmatov

"Chirchiq 2023 y"

4. Interaktiv metodlarning ta'lim tizizmida tutgan o'rni va ahamiyati.
Z.A.Namazov- Jizzax DPU .

